XALQ DEPUTATLARI KARMANA TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 18 - oktabr VI-56-163-5-71-K/22 Karmana tuman hokimligi

Karmana tumani mahalliy byudjetining 2022 yil II chorak qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 126-moddasiga asosan tuman mahalliy byudjetining joriy yil boshida aniqlangan erkin qoldiq mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari Karmana tuman Kengashi

QAROR QILADI :

1. Karmana tuman hokimligi tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Karmana tuman byudjetining qo‘shimcha manbalari Xalq deputatlari Karmana tuman Kengashining qarorlari asosida yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 126-moddasi talablaridan kelib chiqib, tuman hokimining Xalq deputatlari Karmana tuman Kengashiga taqdim etgan taklifiga muvofiq, tuman mahalliy byudjetining 2022-yil II chorak daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish 1-ilovaga muvofiq, Xalq deputatlari tuman kengashining 2022 yil 27 apreldagi VI-48-64-5-71-K/22-sonli qaroriga 2-ilovaga muvofiq tegishli o‘zgartirishlar kiritilsin.

4.Tuman mahalliy byudjetidan mablag‘ ajratilgan tashkilotlar rahbarlariga tuman mahalliy byudjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larning sarflanishi va natijadorligi to‘g‘risidagi hisobotlarni Xalq deputatlari Karmana tuman Kengashiga taqdim etib borishi vazifasi yuklatilsin.

5.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Urinov), tuman hokimligi moliya bo‘limi (Rustamov) bilan birgalikda:

ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy byudjetiga qaytarish choralarini ko’rsin.

6. Tuman hokimligi moliya bo‘limi (Rustamov), tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (Azamov) ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (T.Urinov) va Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Vafoyev) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman Kengashi Raisi **F.Umarov**

Xalq deputatlari Karmana tuman
Kengashining
2022 yil 18 oktabrdagi
VI-56-163-5-71-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman Mahalliy byudjetining qo‘shimcha mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘lar

TR	**Tashkilot nomi**	**Maqsadi**	**Tuman Mahalliy byudjetining 1-,2-chorak daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hisobidan ajratilgan mablag‘ (ming.so‘mda)**
1	Tuman hokimligi	Elektroenergiya xarajatlaridan yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash xarajatlariga	24000,0
2	Tuman hokimligi	Tuman mahalla fuqarolar yig‘inidagi hokim yordamchilariga tovar moddiy zahiralar sotib olish xarajatlari uchun	10000,0
3	Tuman hokimligi	Xizmat avtomobillarini ta’mirlash xarajatlariga	15 000,0
4	Tuman hokimligi	Xizmat avtomobillarini siqilgan gaz sotib olish xarajatlariga	12 600,0
5	Tuman hokimligi	“Yerelektron” avtomatlashtirilgan axborot tizimi yerni auksionga qo‘yish bilan (APZ) bog‘liq xarajatlariga	80 000,0
6	Tuman hokimligi	Mehribonlik uylaridan ota-onasi yoki yaqin qarindoshlari qaramog‘iga qaytarish bilan bog‘liq xarajatlar	23000,0
7	Tuman hokimligi	Xalq deputatlari Karmana tumani Kengashining 2022 yil 26 apreldagi VI-48-63-5-71-K/22-sonli qaroriga asoan tuman hokimligi xodimlariga ustama to‘lovlari uchun	240 920,0
8	Tuman hokimligi Moliya bo‘limi	Xalq deputatlari Karmana tumani Kengashining 2022 yil 26 apreldagi VI-48-63-5-71-K/22-sonli qaroriga asoan tuman hokimligi moliya bo‘limi xodimlariga ustama to‘lovlari uchun	19 296,0
9	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga	Maxsus avtomashinalarni ta’mirlash xarajatlariga	35000,0
x	**Jami**		**459 816,0**

Xalq deputatlari Karmana tuman
Kengashining
2022 yil 18 oktabrdagi
VI-56-163-5-71-K/22-son qaroriga
2-ilova

Tuman mahalliy byudjetning 1-chorak daromadlarning reja ko‘rsatkichlaridan oshgan qismi hisobidan ajratilgan mablag‘larga kiritiladigan o‘zgartirish

T/R	**Xalq deputatlari tuman Kengashi qarori raqami va sanasi**	**Tashkilot nomi**	**Maqsadi**	**Kamay-tiriladigan mablag‘**
1	27,04,2022 VI-48-64-5-71-K/22	Tuman hokimligiga	Mahallalarga tarqatilgan mevali va manzarali daraxtlardan yuzaga kelgan qarzdorlik uchun	-90 000,0
x	**Jami**			**-90 000,0**